ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FOLKLORDA TIL VA MADANIYAT ALOQADORLIGI (o'zbek xalq ertaklari misolida)

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida "til va madaniyat" tushunchasi bir necha asrlik ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib qolmoqda. Har bir xalqning madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan globallashuv davrida mazkur mavzuga qiziqishning ortib borayotgani har ikki tadqiq predmeti – tilning madaniyatda aks etishi va aksincha, madaniyat belgilarining til tizimida ifodalanishini isbotlovchi bahslarning ulkan hissasi bilan belgilanadi[1]. Chunki har bir xalqning o'ziga xosligini ko'rsatadigan muhim omillardan bir o'sha xalqning madaniyati hisoblanadi. Madaniyat esa asrlar davomida xalqning tilida yashaydi.

Madaniyat – keng ma'noli tushuncha. V.Maslova "madaniyat" so'zi "o'stirish, tarbiyalash, rivojlantirish, hurmat qilish, sig'inish (kult)"[2] ma'nolarini ifodalashini qayd etib o'tadi. Ba'zi manbalarda madaniyat "*shaharlik", "ta'lim-tarbiya olganlik*" ma'nolarini ifodalashi ko'rsatiladi. XVIII asrdan boshlab – **"madaniyat"** atamasi inson faoliyatining mahsuli bo'lgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunda madaniyat atamasining turli sohalarda 500 dan ortiq variantda ishlatilishi qayd etiladi.

Madaniyat – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy va aqliy harakatlar uchun kishilar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy amaliyot usullari; alohida individ, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usuli. Madaniyat g'oyalar, qadriyatlar, urf-odat, e'tiqod, axloqiy me'yorlarni qamrab oladi, rivojlanib boradi va avloddan avlodga meros sifatida o'tadi. Shuningdek, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui va shu yutuqlarning darajasini ham ifodalaydi[3]. Bu esa har bir xalqning madaniyatida asrlar osha yashab kelayotgan mental xususiyatlarning xalq turmushida, mashg'ulotlarida, oila munosabatlarida, to'y yoki motam marosimlarida, bola tarbiyasi va h.k.larda o'z ifodasini topadi. Rus tilshunosi V.Vorobev madaniyat so'zining etimologiyasiga to'xtalib, ushbu tushunchaning dastlab insonning tabiatga maqsadli ta'sirini ifodalashini (masalan, yerga ishlov berish madaniyati), keyinchalik esa shaxsning ta'lim-tarbiya olishini ifodalashini, oxir oqibatda xalqning gumanistik g'oyalari, svilizatsiya taraqqiyoti, jismoniy, axloqiy, estetik va insonning ruhiy rivojlanishini anglatganligini[4] ta'kidlaydi. Ba'zi olimlar insoniyatning ilk madaniylashuv jarayoni haqida ma'lumot berar ekan, insoniyat uchun xizmat qiluvchi barcha narsalarni madaniyat bilan bog'lashga harakat qiladilar. Jumladan, L.Bernard: "Inson yaratgan barcha narsa, u moddiy obyektlar, tashqi xatti-harakatlar, ramziy xatti-harakatlar yoki ijtimoiy tashkilotlar – madaniyat mahsuli[5]", deb ko'rsatadi.

Madaniyatlar o'rtasidagi aloqa xalqlarning madaniyatiga ta'sir qilishi mumkin. Xususan, N.Alefirenko madaniyatning kommunikativ funksiyasi haqida fikr bildirib, hech qanday madaniyat alohida holda mavjud bo'lmaydi, deydi. Olim fikrini davom ettirib, bu jarayonda inson omilining o'rni kattaligi, bir shaxs yoki ma'lum bir madaniyat tomonidan orttirilgan tajriba boshqa odamlar, boshqa avlodlar va koinotning boshqa hududlarida joylashgan hamda kelajakdagi boshqa madaniyatlarning mulkiga aylanishi mumkin, deb ko'rsatadi.

Madaniyat va til o'rtasidagi munosabatni tadqiqi yaqinda paydo bo'lgan emas. Madaniyatning til bilan aloqasi qadimdan olimlar e'tiborini tortib kelgan. Buning natijasida XIX asrdan boshlab til va madani-

[1] Амонтурдиев Н. Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс. док. ...дисс. – Термиз, 2021. – В. 3.

[2] Маслова В. Введение в лингвокультурологию: Учебное пособие. – Москва: Издательство Наследие, 1997. – С. 24.

[3] Худойберганова Д. Лингвокулътурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Туронзамин зиё, 2015. – Б. 29.

[4] Воробьев В.В. Лингвокулътурология. – Москва: Издательство Российского университета дружбы народо, 2006. – С. 14.

[5] Qarang: Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – Москва: Флинта, Наука, 2010. – С. 39.

yat muammosi dunyoni bilish va tasvirlashning antropotsentrik tamoyillariga asoslangan faylasuf va tilshunoslarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Til va madaniyat munosabati bugungi kun tilshunosligida ham muhim ahamiyatga ega. Til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalariga dastlab V.fon Gumboldt, A.Vayesgerber, L.Blumfild, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi Yevropa va rus tilshunoslari e’tibor qaratgan[1]. Ayniqsa, E.Sepir va B.Uorflarning til va madaniyatning uyg‘unlashuvi to‘g‘risidagi nazariyalari ko‘pchilik olimlarning diqqatini jalb qildi. Jumladan, Sepir tilni madaniyatdan, ya’ni inson hayotini belgilaydigan ijtimoiy meros – amaliyot va e’tiqodlar yig‘indisidan tashqari mavjud emas[2], deb ko‘rsatadi. 1930-yillarda Sepir g‘oyalari ergashib, Uorf ham o‘z g‘oyalarini ilgari suradi. Uorfning: “Turli tillarda so‘zlashadigan va turli madaniyatlarga mansub odamlar dunyoni boshqacha qabul qiladilar. Biz tabiatni tilimiz taklif qilgan yo‘nalishda ajratamiz. Hodisalar olamidagi ba’zi toifa hamda turlarni umuman ajratmaymiz, chunki ular o‘z-o‘zidan ravshan, aksincha, dunyo bizga ongimiz tomonidan tartibga solinishi kerak bo‘lgan taassurotlarning kaleydoskopik oqimi sifatida ko‘rinadi[3]”, degan g‘oyasi ko‘pchilikning til va madaniyat haqidagi qarashlariga ta’sir o‘tkazdi.

Lingvomadaniyatshunoslikning vujudga kelishida V.fon Gumboldtning xizmati katta bo‘ldi. Olim tilning xalq xarakterini, ruhiy olamini (umumiy holatda), fikr yuritishi (o‘ylashi, fikr bildirishi va uni amalga oshirishi)ni, san’atini, ilm-fanini, falsafiy qarashlarini ifodalovchi ma’naviy qadriyatlarning butun majmuasi ekanligini ta’kidlaydi. Xalqning dunyoqarashi esa tilda aks etishini nazariy asoslab beradi. V.fon Gumboldt birinchi bo‘lib til va tafakkurning milliy tarkibiga e’tibor qaratdi. Uning ta’kidlashicha, “turli tillar millat uchun o‘ziga xos tafakkur va idrok etishni o‘rganishdir”. Olim “oraliq dunyo” va “olamning manzarasi” tushunchalarini o‘rtasidagi farqni ta’kidlaydi. Gumboldtning “oraliq dunyo” – bu odamning haqiqatni idrok etishini belgilaydigan lingvistik faoliyatning statik mahsulidir, deb ko‘rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi - bu harakatlanuvchi, dinamik mavjudot, u doimo o‘zgarib turadi, chunki u haqiqatan ham til aralashuvidan hosil bo‘ladi. Uning birligi nutq aktidir. Shunday qilib, ikkala tushunchani shakllantirishda til katta rol o‘ynaydi. Gumboldtning til va tafakkurning milliy tarkibiga e’tibor qaratish lozimligi haqidagi g‘oyalari lingvomadaniyatshunoslik fanining vujudga kelishiga turtki berdi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik o‘z obyektiga ega fan sifatida XX asrning so‘nggi choragida shakllandi, “lingvokulturologiya” termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ldi.

Madaniyat va til o‘rtasidagi aloqada madaniyat orqali til ifodalanishi ko‘pchilik olimlar tomonidan qayd etilsa-da, madaniyatning o‘zlashtirilishi tilga aloqadorligini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Buni Z.Sobitova quyidagicha ifodalaydi: “Til – madaniyatning mahsuli. U ajdodlardan meros bo‘lib qolgan. Ba’zan, madaniyat til orqali o‘zlashtiriladi, degan g‘oya ilgari suriladi. Shuning uchun til madaniyatning ajralmas bir qismi, ayni paytda, milliy mentalitetni o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[4].

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida rus tilshunosi V.Vorobev Sepirning “Til – madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: u “o‘sadi”, uni ifodalaydi, butun madaniyat rivojlanishining zaruriy shartidir”, degan g‘oyasiga qo‘shilib, tilni ma’lum bir davrda va ma’lum bir joyda yashovchi xalq madaniyatining muhim bir qismi” ekanligini ta’kidlaydi. V.Vorobev fikrini davom ettirib, madaniyatning barcha jabhalarida tilning o‘z muhiti borligini va til madaniyatdan ayro, ya’ni ijtimoiy meros bo‘lib qolgan amaliy ko‘nikma va g‘oyalar majmuasidan tashqarida mavjud emas[5]”, degan xulosaga keladi. Shunga asoslanib, tilni madaniyatdan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi, u xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari, ma’naviyati va madaniyati bilan birga yashaydi, desak xato bo‘lmaydi. Olima Sh.Maxmaraimova til va madaniyatning bir-biriga ta’siri haqida haqida fikr bildirar ekan, E.Sepir va B.Uorflarning til va madaniyatning uyg‘unlashuvi haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tadi: “Til – madaniyat mahsuli va shu bilan birga madaniyatni shakllantiruvchi omil”[6].

V.Maslova: “Til madaniyatning asosi, uning qurilish materiali hamda eng muhim qismi. U madaniyatning ko‘plab muhim parametrlarini, ma’nolarini ifodalash va motivatsiya shaklini belgilaydi va bevosita madaniyatning rivojlanishida ishtirok etadi. Til – bu inson ruhiyatining arxivi hisoblanadi”[7], deb ta’kidlaydi. Olimaning ushbu fikri xalqlarning o‘z tarixi hamda madaniyatini kelgusi avlodlarga yetkazib berishda

[1] Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, – Б. 6.

[2] Edward Sapir. Language an introduction to the study of speech. New York: Harcourt, Brace, 1921. – P. 100.

[3] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – Москва: Гнозис, 2002. – С. 15.

[4] Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – Москва: Флинта: Наука, 2013. – С. 24.

[5] Воробьев В.В. Лингвокулътурология. – Москва: Издательство Российского университета дружбы народо, 2006. – В. 12.

[6] Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. –Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 24.

[7] Маслова В. Введение в лингвокультурологию: Учебное пособие. – Москва: Издательство Наследие, 1997. – С. 24.

tilning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatib beradi. S.Golovka: “Til va madaniyat: o‘zaro ta’sir obyektlari” nomli maqolasida “nutq madaniyati”, “nutq madaniyati me’yori” kabi atamalarni ko‘p ma’noli atama sifatida baholaydi; tilga madaniyatni translyatsiya qiluvchi vosita sifatida qaraydi, chunki til xalq madaniyati va tarixiga qo‘yilgan mislsiz yodgorlikdir, deb ta’kidlaydi. L.Nigmatova “Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligida til va madaniyat mushtarakligi muammosi“ nomli dissertatsiyasida “Til va madaniyat o‘zaro bog‘liq. Bir tomondan, har bir madaniyat o‘z tilini rivojlantiradi; yuqori darajadagi madaniy modellar til shakllari va mazmunida aks ettirilgan. Boshqa tomondan, til tafakkur tuzilishini belgilaydi va shu tariqa madaniyatni shakllantirish elementlaridan biri hisoblanadi. Biroq bu tushunchalar o‘rtasida bir xil belgi qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi. Madaniyat faqat til bilan belgilanmaganidek, til ham faqat madaniyatning ifodasi emas[1], deya e’tirof etadi.

Til va madaniyat mushtarakligida ongning o‘rni katta. Chunki “ong madaniyatning til orqali ifoda etilgan dasturiy ifodasi, uning tasarrufidagi sohadir. Shunday ekan, inson ma’lum tilni turli qatlamlar ifodalagan madaniyat orqali o‘zaro muloqotda, erkinlik faoliyatida o‘zlashtira oladi[2].

Til va madaniyatning mushtarakligida dunyo xalqlarining lisoniy manzarasida mavjud bo‘lgan milliy-mental xarakter kasb etuvchi urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar, marosimlar madaniyatshunoslikning obyekti hisoblansa, ularning til birliklari shaklida xalq vakillarining ongida saqlanishi, kommunikantlar nutqida qo‘llanishi, shuningdek, kelgusi avlodlarga yetib kelishida tilshunoslikning o‘rni beqiyos. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi XXI asrga kelib tilshunoslik sohasida yangi yo‘nalishlar zamirida yangi tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Buning natijasida inson omilini lingvistik jihatdan tahlili yuzaga keldi. Bu esa antropotsentrik tilshunoslik nomi ostida butun dunyo tilshunosligida tadqiq etila boshlandi.

Lingvomadaniyat xalq madaniyatining paydo bo‘lishi, shakllanishi, qadriyat darajasiga ko‘tarilishini tilda aks ettiruvchi fan sifatida shakllandi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning vaqtincha bog‘lanishi emas, balki bu ikki fanning doimiy sistemalashgan tarmog‘ini yuzaga keltirdi. Natijada, lingvomadaniyatshunoslik o‘z oldiga bir qator maqsad va vazifalarni qo‘ydi. Maxsus metod va tadqiqot obyektiga ega bo‘lgan fan sifatida jahon fanlar tarmog‘idan muhim o‘rin oldi. V.Maslovaning ta’biri bilan aytganda, lingvomadaniyat tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan, xalq madaniyatining tilda o‘z aksini topgan va mustahkam o‘rnashgan ko‘rinishlarini o‘rganadigan fanga aylandi.

N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin[3].

Lingvomadaniyatshunoslikning *“oliy tushuncha”*laridan biri “til” tushunchasi hisoblanadi. Til ma’lum bir xalq vakillining o‘sha xalqqa xos dunyoqarashini hamda milliy-madaniyatini aks ettiradi. Lingvomadaniyatda tilning oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa madaniyatni saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazib berishgan iborat. Shuningdek, til shaxsiyat, milliy madaniyat, xalq mentalitetning saqlanishi va shakllanishi uchun muhim. Insonning inson sifatida shakllanishining o‘zi ham madaniyat bilan bog‘liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko‘zgusida aks etadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari “nazorati”da bo‘ladilar. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta’sirida taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o‘rinda voqelikni moddiy va ma’naviy o‘zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi[4]. Ch.Xokket madaniyat – insonlarning boshqa insonlardan o‘rganishi natijasida ega bo‘ladigan odatlari, deb qayd etadi[5]. Ch.Xokketning ushbu ta’biri o‘rinli. Har bir xalq aynan o‘sha xalq vakillarining madaniyatidan o‘rnak olishi, natijada avlodlarga o‘sha madaniyatning singishi sezilarli darajada ta’sir qiladi. Bu jarayon bir necha asrlarni talab qiladi. Shu bilan birgalikda, boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-siyosiy aloqalar madaniyatning rivoji bilan bir qatorga o‘zgarishiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa bevosita tilga ham ta’sir qiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, til hamda madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi masalasi juda murakkab va ko‘p qirrali. Til voqelikni aks ettirishda yetakchilik qilsa, madaniyat esa bu voqelikning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli til madaniyatning oddiy aksini ifodalaydi. Xalq tilida

[1] Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек луғатчилигида тил ва маданият муштараклиги муаммоси. Филол.фан. д-ри(DSc)... дисс.автореф. – Бухоро, 2021. – Б. 32.

[2] Искандарова Г. Тил, нутқ ва тафаккур муиосабатиииг ижтимоий муҳитда воқелаииши. // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: 2006. 51 б.

[3] Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2015. – Б. 18

[4] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Рисола. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 63.

[5] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – Москва: Гнозис, 2002. – С. 18.

mavjud bo‘lgan lingvomadaniy birliklarning eng qadimiy davrini aniqlash va bugungi kungacha bosib o‘tgan yo‘lini o‘rganishda o‘sha xalqning og‘zaki ijodiga murojaat qilish samara beradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida xalqlarning o‘tmishi yashaydi. Har bir xalqning o‘tmishi va bugungi kunini bog‘lovchi milliy va madaniy qadriyatlari, tili, dini, e’tiqodi, urf-odatlari, ma’naviy olami va shu kabilarning xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri – ertaklarda o‘z ifodasini topishi, shubhasiz.

Uzoq arslik milliy-madaniy meros, an’ana va qadriyatlar bilan bog‘liq tushunchalar ma’lum bir xalqning og‘zaki ijodida o‘rnashgan arxetip va prototiplar orqali inson ongida umumlashtiriladi. Jumladan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi – o‘zbek xalqiga xos mental xususiyatlarni ifodalab, ***madaniy vorislik*** vazifasini bajarib kelmoqda. Folklorda zuhr etilgan madaniy zaxira ko‘p yillik xalqimizning tarixi haqida ma’lumot berib, xalq vakillarining ongida yashab, kelgusi avlodlarga yetkazib berish vazifasini o‘tab kelmoqda. Shu sababli til va madaniyat o‘rtasidagi mushtaraklikda xalq og‘zaki ijodida mavjud madaniy qadriyatlarni o‘rnini belgilash muhim.

“Olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi dunyoni ko‘rish qobiliyati bilan birgalikda madaniyatshunoslik va lingvosemiologik tadqiqotlar doirasida ham o‘rganib kelingan. Olamni ko‘rish muammolarini dastlab mif va folklor materiallari asosida arxaik ijtimoiy ong shaklini qayta qurish masalalari doirasida o‘rganilgan[1]. Shu ma’noda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng ommabop janrlaridan hisoblangan ertaklar tilida yashab kelayotgan lingvomadaniy birliklarni aniqlash muhimdir. R.Robinsning bu haqdagi quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: “Til madaniyat xazinasi, sandig‘i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi”[2]. Ushbu qarashlardan ham ko‘rinib turibdiki, folklorda, xususan, ertaklar tilida mavjud milliy-madaniy xususiyatlar ko‘p asrlik o‘zbek xalqining tarixini namoyon etadi. Ertaklar tilida mavjud qahramonlarning xarakteri, yashash tarzi, asosiy mashg‘uloti, oila va nutqiy etikasi (ba’zan hayvonlar, qushlar, narsa-predmetlarga va shu kabilarga ko‘chirilgan xulq-atvor) va boshqalarda ham mental xususiyatlar o‘z aksini topadi.

O‘zbek xalq ertaklari nafaqat syujet va qahramonlar tizimi, balki ularning nutqiy harakatlari, atrof-muhit tasviri va til birliklarining semantikasi orqali ham chuqur madaniy ma’noni uzatadi.

Yosh avlodni milliy-madaniy meros bilan yaqindan tanishtirishda ertak janrining ahamiyati katta. Jumladan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertaklarida ifodalangan voqea-hodisalar, narsa-predmetlar, aholining yashash tarzi bevosita xalqimiz hayotidan xabar beradi:

“Qarindosh-urug‘lar bir joyga to‘planishibdi. *Hammasining o‘zi g‘amli to‘tida ekan. Qanday bo‘lsa ham qaytmaslikni maslahat berishibdi”.* Ushbu misol orqali o‘zbek xalqiga xos mental xususiyat, ya’ni to‘yma’rakadan yoki biror muhim ishdan avval yaqinlar, qo‘ni-qoshnilar bilan maslahatlashish odati yosh avlod ongiga singdiriladi. Quyidagi misolga e’tibor qaratar ekanmiz, unda so‘z berish va uning bajarish har birimiz uchun burch darajasiga ko‘tarilishi oddiy qush – to‘ti obrazi orqali ko‘rsati’ beriladi:

*P*odshoh:

– Yo‘q, senga javob bersam, yana kelmay qolsang, men sog‘inaman, juda xafa bo‘laman, – debdi.

To‘ti:

– Yo‘q, podshohim, sizning menga ko‘rsatgan iltifotingiz yomon yo‘lga boshlamaydi, qanday bo‘lsayam ***va’da – ulug‘, muqaddas narsa,*** *uni buzish yaramaydi.* ***V****a’dani buzmoq – o****g‘ir gunoh. So‘z beraman – so‘zimda turaman,*** *– debdi.*

– Xo‘p bo‘lmasa, agar tezda kelsang, ikki haftaga ruxsat beraman, – debdi podshoh.

Ertak qahramonlari (ba’zan hayvon yoki qushlar timsolida) tomonidan berilgan va’daning buzilmasligi alohida urg‘ulanadi. Bu o‘zbek etikasidagi so‘zga vafo va ahdning ulug‘ligi kabi axloqiy me’yorni ham ifodalaydi. Bundan tashqari, ertaklardagi leksik birliklar va barqaror iboralar milliy madaniyatning moddiy va ma’naviy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, ertaklarda *“O‘choq”, “tandir”, “beshik”, “chopon”, “do‘ppi”* kabi leksemalar ertaklarda faol qo‘llanib, o‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzi, uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyinish madaniyatini yosh avlod ongiga singdiradi. Ertaklar folklor formulalar, ya’ni ***“Bor ekan, yo‘q ekan...”, “Qirq kecha-kunduz to‘y bo‘libdi...”, “Murod-maqsadiga yetibdi”*** kabi barqaror formulalar bilan boshlanadi va yakunlanadi. Bu formulalar nafaqat nutqning ajralmas qismi, balki ertakchilik an’anasining, ya’ni og‘zaki ijod madaniyatining tilga kirgan shaklidir. Aytish mumkinki, ertak strukturasida: ertakning boshlanishi va yakunlanishidagi barqaror jumlalar arxaik ong va koinot manzarasining lingvistik kodlari hisoblanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

[1] Mamatov A. Zamonaviy lingvsitika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 64.
[2] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent: 2019. – B. 7.

Ertak formulalarida madaniy kodlarning aks etishi

Formulalar turi	Maqsad va vazifasi	Lingvomadaniy jihatlari	Misollar
Boshlanish formulalari	Haqiqat va fantastika orasidagi chegarani belgilash	**Mifopoetik vazifa.** Real va virtual dunyo o‘rtasidagi o‘tishni ta’minlaydi.	*Bor ekan, yo‘q ekan... Qadim zamonda, bir podshoh o‘tgan ekan.*
Yakunlash formulalari	Adolatning qaror topishi, hikoya yakuni	**Eskatologik vazifa.** Qahramonning saodatga (murod-maqsadga) yetishini tilda ifodalash.	*Murod-maqsadiga yetibdi”, “Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y bo‘libdi.*

O‘zbek xalqida hurmat va odobning yuksakligi til darajasida alohida aks etadi. Ertaklardagi muloqotlarda bu yaqqol ko‘rinadi. Bu holat murojaat birliklari va sotsiopragmatik jarayonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, kichiklarning kattalarga yoki fuqaroning podshohga murojaatida” ***“Podshohim”, “Otajon”, “Buvijon”*** va aksincha, kattalarning kichiklarga murojaatida: ***“oppog‘im”, “qizim”, “o‘g‘lim”…***kabi hurmat ma’nosini anglatuvchi leksemalar faol ishlatilishi milliy nutqiy etik va ijtimoiy ierarxiyaning madaniy belgisidir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, til va madaniyatning o‘zaro aloqasi xalq og‘zaki ijodining eng ommabop janri hisoblangan ertaklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda xalq ertaklari bilan yosh avlodni tanishtirish orqali milliy mentalitetimiz bilan ham tanishtirib borgan bo‘lamiz.

Rezyume. Globallashuv sharoitida har bir xalqning milliy madaniyatini saqlab qolish masalasi dolzarbdir, chunki madaniyat asrlar davomida xalqning tilida yashaydi. Til – madaniyatning ko‘zgusi sifatida, xalqning ruhiy olami, fikrlash tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu bog‘liqlikni o‘rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik fani, til birliklarida aks etgan milliy madaniyat ko‘rinishlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi til va madaniyatning nazariy mushtarakligini tahlil qilish hamda bu aloqaning eng qadimiy manbayi bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertaklar tilida qay darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatib berishdir.

Resume. In the context of globalization, the preservation of each nation’s unique national culture is a pressing issue, as culture resides within the language of the people across centuries. Language, as a mirror of culture, embodies the nation’s spiritual world, way of thinking, customs, and values. Linguoculturology, the field dedicated to studying this connection, focuses on analyzing the manifestations of national culture reflected in linguistic units. The main goal of this article is to analyze the theoretical commonality of language and culture and to demonstrate the extent to which this connection is manifested in the language of folklore, particularly in folk tales, which represent the most ancient source of this relationship.

Резюме. В условиях глобализации вопрос сохранения национальной культуры каждого народа является актуальным, поскольку культура живет в языке народа на протяжении веков. Язык, будучи зеркалом культуры, воплощает духовный мир, образ мышления, обычаи и ценности народа. Лингвокультурология, дисциплина, посвященная изучению этой связи, направлена на анализ проявлений национальной культуры, отраженных в языковых единицах. Основная цель данной статьи – проанализировать теоретическую общность языка и культуры и продемонстрировать, в какой степени эта связь проявляется в языке устного народного творчества, в частности, в народных сказках, являющихся древнейшим источником этих отношений.